



МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTI TARBIYACHISIGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA KASBIY TALABLAR

O‘razaliyeva S.T.

KIUT magistranti,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

maktabgacha ta’lim fakulteti stajyor-o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, tarbiyachi, zamonaviy, pedagogika, kasbiy, malaka, talab, rivojlanish.

Ключевые слова: дошкольное образование, в воспитател, современная, педагогика, профессионал, квалификация, потребность, развитие,

Key words: pre-school education, educator, modern, pedagogy, professional, qualification, demand, development.

Yangi O‘zbekistonda yuz berayotgan turli ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar taraqqiyotning barcha qirralariga ta’sir etmasdan qolmaydi. Maktabgacha ta’lim boshlang‘ch ta’limning birlamchi bo‘g‘ini sifatida davlatimiz e’tirofidagi asosiy masala bo‘lib kemoqda. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoevning “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining qoidasi bo‘lishi kerak” deb nomlangan ma’ruzasida maktabgacha ta’lim sohasida bolalarni qamrab olish atigi 27 foizni tashkil etishi va bu sohadagi ishlar e’tibordan chetda qoganligi ta’kidlab o‘tildi. Ana shu vazifalardan kelib chiqib, mamlakatimizda bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlash samaradorligini oshirish maqsadida katta ishlar amaga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chorata tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ushbu fikrlarning isbotidir.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilariga milliy qadriyatlarimiz va ma’naviy, madaniy merosimizni o‘rgatish borasida mutaxassislar, olimlar va mutassadi tashkilotlar xodimlari tomonidan olib borilayotgan tadbirlarni davlat



va hukumatimiz tomonidan qo‘llab quvvatlanishi, hamda rag‘batlantirilishi ta‘lim-tarbiya jarayonining tubdan isloh qilinayotganligining amaliy isbotidir.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachisi shaxsiga jiddiy talablar qo‘yiladi. Ular pedagoglar va psixologlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Tarbiyachi shaxsiga qo‘yiladigan eng muhim talab uning yuqori malakali bo‘lishidir, balki uningsiz pedagogik faoliyat yuritib bo‘lmaydi. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachisi ham shunday talablarga javob berishi kerakki, bunday talablar uni yuksak darajada bo‘lg‘usi mutaxassisni shakllantiradigan shaxs darajasiga ko‘tarsin.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachisiga quyidagi muhim va doimiy talablar qo‘yiladi:

1. jamiyat rivojlanishining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy yo‘nalishlarini to‘g‘ri baholay olishi;

2. muayyan taraqqiyot davrida jamiyat uchun zarur bo‘lgan bo‘lg‘usi mutaxassisni shakllantirish standartlarini egallagan bo‘lishi;

3. pedagogik faoliyatni sevishi;

4. o‘z sohasi bo‘yicha maxsus bilimlarga ega bo‘lishi;

5. zakovatli bo‘lishi;

6. pedagogik tuyg‘u;

7. yuksak yetuklik;

8. umumiy madaniyat va axloqning yuksak darajasi;

9. pedagogik texnologiyalarni mahorat bilan egallagan bo‘lishi.

Pedagog shaxsiga qo‘yiladigan qo‘shimcha talablar: kirishib keta olish, san‘atkorlik, quvnoqlik, yaxshi did va boshqalar.

Yuqorida sanab o‘tilganlar, pedagog shaxsiga xos bo‘lgan tug‘ma xislatlar emas, balki ular pedagogning o‘z ustida muntazam va betinim mehnati, ulkan xislatlari natijasida yuzaga keltiriladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilari tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari.

dunyoqarash xarakteridagi sistemali bilimlarga ega bo‘lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

Vatan tarixini bilishi, ma‘naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda



ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma’naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;

sog‘lom hayot tarzini yuritish zaruriyati bo‘yicha ilmiy tasavvur va e‘tiqodga ega bo‘lishi, o‘z-o‘zini jismoniy chiniqtirishi;

axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlarni qabul qila olishi;

tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va o‘z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila olishi lozim.

Kasbiy malaka talablari.

1. Ilg‘or tajribalarni o‘rganib, tarbiyachilar va tibbiy hamshiralar orasida tajriba almashish ishlarini tashkil qilish, tarbiyachilar uchun ularga amaliy yordam berish maqsadida maslahatlar o‘tkazish;

2. bolalar tarbiyasining dolzarb masalalarini pedagogik kengashning muhokamasiga kiritish, pedagogik kengashlarga materiallar tayyorlash va unda tarbiyachilarning faol ishtirokini ta‘minlash;

3. tashkilotida qabul qilingan buyruqlarning bajarilishini nazorat qilish;

4. ota-onalar orasida pedagogik bilimlarning tashviqoti bo‘yicha hamda maktabgacha Ta‘lim tashkilotida turli yosh guruhlar bo‘yicha tarbiyachilar ishida izchillikni ta‘minlash;

5. ta‘lim tashkilot faoliyatiga qo‘yilgan sanitariya-gigiena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

6. tarbiyalanuvchilarni ichimlik suvi bilan ta‘minlash va bolalar uchun qo‘yilgan sanitariya- gigiena talablariga rioya qilish.

Bilishi lozim:

1 O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi va “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlarini;

2. hukumatning tegishli qarorlari, Maktabgacha Ta‘limi vazirligi tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlarni;

3. maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablarining mazmunini, bolalarni maktab Ta‘limiga tayyorlash dasturi va tarbiyaviy ishlar konsepsiyasini;



4. maktabgacha pedagogika va psixologiyani, maktabgacha yoshdagi bolalami o'qitish va tarbiyalash shakl va metodlarini;

5. maktabgacha Ta'limga davlat talablarini bajarilishini nazorat qilish shakllari va metodlarini, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish qoidalarini;

6. pedagogik fan va amaliyotda ishlab chiqilgan metodik hujjatlarni, o'quv va tarbiya jarayonida o'qitish texnikaviy vositalaridan foydalanish amaliyotini. Malaka talablari:

7. o'z yo'nalishi bo'yicha kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot yoki kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot va kichik yoshdagi bolalami tarbiyalash bo'yicha kurslarni tugatganlik;

8. xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi;

9. uch yildan kam bo'lmagan pedagogik ish staji.

Xulosa o'rnida, shuni takidlash mumkinki, zamonaviy tarbiyachi bugungi kunda maxsus tayyorgarlikka muhtoj deya hisoblaymiz. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi bolalarni o'qitish va har tomonlama puxta rivojlantirish uchun ushbu sohadagi eng yangi texnologiyalarning sir -asrorlarigacha puxta egalashi zarur. Shuningdek, keng bilimdonlik yuksak rivojlangan intellekt va yuksak axloqiy madaniyatga ega bo'lishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyevning "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak".

2. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chorata tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 2020 yil 22-dekabrda 802-sonli qaroriga 1-ilova Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti.

4. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.M.Kayumova Maktabgacha pedagogika".- T., "Tafakkur". 2019

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisiga muhim va doimiy qo'yiladigan zamonaviy pedagogik va kasbiy talablar haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются важные и постоянные современные педагогические и профессиональные требования к воспитателям организаций дошкольного образования.

SUMMARY

This article reflects on the modern pedagogical and professional requirements that are important and constant for the teacher of a preschool educational organization.